



**BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**

BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2024- YIL
YANVAR-APREL**


2024- yilning yanvar-aprel oylarida Buxoro viloyatida jami **2 757,5** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2024-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **105,8 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Norasmiy sektor




2024- yil 1- may holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



1 312

Bino va inshootlar
qurish

526

Fuqarolik obyektlarini
qurish

703

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 99,1 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,6 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 91,7 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,7 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 123,2 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 27,7 foiz ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 99,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

	Holatiga :		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.05.2023- y.	01.05.2024- y.	
Buxoro viloyati	2 566	2 541	99,0
Buxoro shahri	800	798	99,8
Kogon shahri	105	98	93,3
<i>tumanlar:</i>			
Olot	80	75	93,8
Buxoro	186	184	98,9
Vobkent	118	110	93,2
G'ijduvon	147	142	96,6
Kogon	132	132	100,0
Qorako'l	109	105	96,3
Qorovulbozor	55	57	103,6
Peshko'	160	184	115,0
Romitan	241	245	101,7
Jondor	214	202	94,4
Shofirkon	219	209	95,4



2024- yil 1- may holatiga ko'ra Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Buxoro sh. (31,4)



Romitan t. (9,6)




Shofirkon t. (8,2)



Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. soʻm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	2 757,5	430,7	1 674,0	652,8
shahar:				
Buxoro sh.	656,3	58,6	451,9	145,8
Kogon sh.	110,4	38,1	51,7	20,6
tuman:				
Olot	174,5	44,7	93,1	36,7
Buxoro	200,0	4,5	136,5	59,0
Vobkent	89,4	1,9	49,4	38,1
Gʻijduvon	206,0	2,6	130,9	72,5
Kogon	201,5	23,9	129,4	48,2
Qorakoʻl	223,0	125,3	67,0	30,7
Qorovulbozor	112,0	77,8	23,3	10,9
Peshkoʻ	176,9	2,5	118,7	55,7
Romitan	249,3	45,3	147,3	56,7
Jondor	179,5	2,4	138,0	39,1
Shofirkon	178,7	3,1	136,8	38,8





2024- yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 430,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilning mos davriga nisbatan 91,2 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 15,6 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 69,4 % i yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 88,6%), Qorako'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 56,2% i yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 81,0 m.) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 60,7 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 0,3% ga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ni tashkil etgan holda 1 674,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



60,7

2024-yil
yanvar-aprel


60,4

2023- yil
yanvar-aprel



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Jondor tumanida (138,0 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 76,9 %), Shofirkon tumanida (136,8 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 76,6 %) va Buxoro shahrida (451,9 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 68,9 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **23,7 %** ni tashkil etdi yoki **652,8 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **116,3 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **125,6 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 631,9 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,6 %** va **95,4 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2024- yil yanvar-aprel oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **59,7 %** i yoki **1 647,6** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

15,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **251,1** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **15,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **801,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **48,6 %** ni tashkil etdi.

48,6 %

36,1 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **595,4** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **36,1 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	2 757,5	105,8	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	656,3	104,4	23,8
Kogon sh.	110,4	100,4	4,0
<i>tuman:</i>			
Olot	174,5	100,4	6,3
Buxoro	200,0	101,4	7,3
Vobkent	89,4	108,2	3,2
G‘ijduvon	206,0	106,0	7,5
Kogon	201,5	100,4	7,3
Qorako‘l	223,0	166,0	8,1
Qorovulbozor	112,0	101,6	4,1
Peshko‘	176,9	102,4	6,4
Romitan	249,3	100,3	9,0
Jondor	179,5	101,3	6,5
Shofirkon	178,7	102,2	6,5



Ma‘lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 8,8 % ni tashkil etib, 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,7 % punktga kamayib, 56,4 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko'payib, 34,8 % ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 29,5 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 7,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 70,5 % (7,9 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da




2023- yil
yanvar-aprel



2024- yil
yanvar-aprel

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,0 % punktga kamaydi va 31,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 68,9 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,0 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	2 757,5	1 874,3	507,1	376,1
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	656,3	469,9	134,8	51,6
Kogon sh.	110,4	48,1	57,1	5,2
<i>tuman:</i>				
Olot	174,5	113,4	17,7	43,4
Buxoro	200,0	138,4	26	35,6
Vobkent	89,4	75,7	7,4	6,3
G'ijduvon	206,0	148,1	15,6	42,3
Kogon	201,5	115,8	54,9	30,8
Qorako'l	223,0	186,8	26,4	9,8
Qorovulbozor	112,0	16,8	7,7	87,5
Peshko'	176,9	133,6	20,5	22,8
Romitan	249,3	167,1	73,8	8,4
Jondor	179,5	137,3	24,7	17,5
Shofirkon	178,7	123,3	40,5	14,9



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1 346,9	104,1
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	2 222,5	102,4
Kogon sh.	1 704,3	98,9
<i>tuman:</i>		
Olot	1 669,5	98,8
Buxoro	1 118,6	99,4
Vobkent	600,5	106,1
G'ijduvon	637,9	104,2
Kogon	2 376,5	98,2
Qorako'l	1 295,8	163,9
Qorovulbozor	5 628,4	100,1
Peshko'	1347,1	100,7
Romitan	1 645,3	98,8
Jondor	965,8	99,5
Shofirkon	957,7	101,1



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar-aprel uchun



Hududlar kesimida 2024- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 5 628,4 ming so'm (yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 100,1 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 2 376,5 ming so'm (yoki 98,2 %), Buxoro shahri – 2 222,5 ming so'm (yoki 102,4 %), Olot tumani – 1 669,5 ming so'm (yoki 98,8 %) va Romitan tumani – 1 645,3 ming so'm (yoki 98,8 %) egalladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (65) 223-81-99